XALQ DEPUTATLARI XAZORASP TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 1-aprel VII-12-51-12-174-K/25 Xazorasp tumani

Hazorasp tumanidagi shaharcha va qishloqlarining maʼmuriy-hududiy chegaralarini tasdiqlash toʻgʻrisida.

Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi “Maʼmuriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash, yer resurslarini xatlovdan oʻtkazish hamda yaylov va pichanzorlarda geobotanik tadqiqotlarni oʻtkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi 299-sonli qarorining ijrosini taʼminlash maqsadida Respublika aerogeodeziya markazi Xorazm hududlararo boʻlinmasi tomonidan “Maʼmuriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash tartibi toʻgʻrisidagi Nizomga asosan Hazorasp tumanidagi shaharcha va qishloqlar chegaralarini belgilash boʻyicha bajarilgan ishlarning yakuniy natijalarini koʻrib chiqish yuzasidan tuzilgan tuman komissiyasining 2025-yil 7-fevraldagi yigʻilishining №1-21-sonli bayoni oʻrganildi.

Kun tartibidagi masalani atroflicha muhokama qilib, Oʻzbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati toʻgʻrisida"gi Qonunining 24-moddasiga muvofiq xalq deputatlari Hazorasp tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi “Maʼmuriy hududiy birliklar chegaralarini belgilash, yer resurslarini xatlovdan oʻtkazish hamda yaylov va pichanzorlarda geobotanik tadqiqotlarni oʻtkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi 299-sonli qarorining ijrosini taʼminlash maqsadida Respublika aerogeodeziya Markazining Xorazm hududlararo boʻlinmasi tomonidan Hazorasp tumanida bajarilgan ishlarning yakuniy natijalarini koʻrib chiqish yuzasidan tuzilgan tuman komissiyasining 2025-yil 7-fevraldagi yigʻilishining №1-21-sonli bayoni tasdiqlansin va ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Shaharcha va qishloqlarning chegaralarini belgilash (yoki taqsimoti) toʻgʻrisidagi maʼlumot 1-ilovaga, sxematik xaritasi 2-ilova muvofiq tasdiqlansin.

3. Mazkur qarorning tasdigʻi xalq deputatlari Xorazm viloyati Kengashidan soʻralsin.

4. Ushbu Qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi oʻrinbosari J.Roʻzimov va xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiyalari zimmasiga yuklatilsin.

Sessiya raisi



VAISOV MASH’AL ISLOMOVICH

Xalq deputatlari Xazorasp tumani
Kengashining
2025-yil 1-apreldagi
VII-12-51-12-174-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Hazorasp tumani shaharcha va qishloqlarning chegaralarini belgilash (yoki taqsimoti) toʻgʻrisida
MA’LUMOT

№	Shaharcha va qilshloqlar nomi	Chegara uzunligi (*metr*)	Yer maydoni (*gektar*)
1	Beshta qishlogʻi	42 983	3 690,38
2	Boʻston qishlogʻi	41 353	3 899,28
3	Karvak qishlogʻi	74 369	5 307,33
4	Muxomon qishlogʻi	62 509	6 184,94
5	Ovshar qishlogʻi	62 643	5 486,23
6	Pichoqchi qishlogʻi	44 870	4 852,94
7	Sanoat qishlogʻi	30 642	2 496,33
8	Yangibozor qishlogʻi	52 559	8 582,9
9	Oqyop shaharchasi	9 026	204,81
10	Oyoqova shaharchasi	10 424	351,05
11	Hazorasp shaharchasi	16 027	792,06
	Jami	**447 405**	**41 848,25**

Xalq deputatlari Xazorasp tumani
Kengashining
2025-yil 1-apreldagi
VII-12-51-12-174-K/25 -son qaroriga
2-ilova

Xorazm viloyati Hazorasp tumanining ma’muriy-hududiy chegara XARITASI

